



**O‘ZBEKISTONDA YO‘QOLIB BORAYOTGAN O‘SIMLIKLAR VA
ULARNI KO‘PAYTIRISH**

Alimardonova Mo‘tabar Xolmo‘minova

ShDPI Pedagogika fakulteti

Tabiiy fanlar o‘qituvchisi

Yaxshiyev Dilxushbek Otabek o‘g‘li

SHDPI Pedagogika fakulteti

Boshlig‘ich ta’lim yo‘nalishi

3-kurs talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada, O‘zbekistonda yo‘qolib borayotgan o‘simliklar va ularni ko‘paytirish, asrash haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: Qizil kitob, Zarafshon archasi, Sirdaryo tulki quyruq, kaufman lola, Grieg lola, muhit, iqlim o‘zgarishi, chorvachilik, ekologik omil, O‘zbekiston Qizil kitobi.

Annotation: In this article, it is discussed in Uzbekistan, which is disappearing, and conservation.

Keywords: Red Book, Zarafshan tree, Kaafman Lola, Great Lola, Engineering, Climate Change, Environmental Factor, Red Book of Uzbekistan.

Аннотация: В этой статье это обсуждается в Узбекистане, который исчезает, и сохранение.

Ключевые слова: Красная книга, Дерево Зарафшан, Каафман Лола, Великая Лола, Инженер, изменение климата, фактор окружающей среды, Красная книга Узбекистана.

Kirish qismi

Qizil kitob – yo‘qolib borayotgan yoki yo‘qolish xavfida bo‘lgan noyob o‘simlik va hayvon turlarini qayd qiluvchi davlat hujjati. Bu hujjat davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Qizil kitobda o‘simlik va hayvon turlari sonining kamayishi,



areallarining qisqarib borishi sabablari yoritiladi; ularni saqlab qolish uchun tavsiyalar berib boriladi.

Qizil kitobga kiritilgan o'simliklar va hayvonlarga qasddan shikast yetkazish, qonun bilan belgilangan tartibda jazolanadi.

O'zbekistonda o'simlik dunyosi juda boy va xilma-xil bo'lib, minglab yovvoyi va xonaki o'simlik turlari mavjud. Bu o'simliklar orasida dunyoda yagona yoki faqat Markaziy Osiyoda uchraydigan noyob va endemik turlar ham bor. Bu o'simliklarning yo'qolib borish xafi ortmoqda. Uning sabalaridan bir ekologiyaning o'zgarib borishi.

Ammo afsuski, so'nggi yillarda ekologik muammolar, inson faoliyati, iqlim o'zgarishlari kabi omillar sababli ayrim o'simliklar yo'qolish arafasida turibdi. Bu esa nafaqat tabiat, balki kelajak avlodlar uchun ham jiddiy tahdid hisoblanadi. Shu sababli yo'qolib borayotgan o'simliklarni asrash va ko'paytirish dolzarb masalalardan biridir. Bu o'simliklarning ko'payishiga har inson o'z hissasini qo'shishi lozim. Agar bu o'simliklar kamayib ketsa, havo ifloslanadi va ekologiyaga katta zarba bo'ladi. Ibn Sino bobomiz ta'kidlaganidek: chang bo'lmasa, inson ming yil umr ko'radi deganlar. Yer sayyorasi ifloslanishi natijasida, odamzod, balki butun hayvonot olami, qushlar hatto o'simlik olamiga katta talofatlar yetadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 4500 dan ortiq yovvoyi o'simlik turi mavjud bo'lib, ularning 400 dan ortig'i "Qizil kitob"ga kiritilgan. Bular orasida Greig lola, Kaufman lola, Zarafshon archa, Sirdaryo tulkiqyruq, va boshqa ko'plab turlar bor. Ushbu o'simliklar o'ziga xos biologik tuzilishga ega bo'lib, ular faqat O'zbekistonning ma'lum hududlarida uchraydi.

Grelg lola:

Greyg lolasi (lotincha: Tulipa greigi) – bir urug'pallalilar sinfi, loladoshlar oilasi, lola turkumiga mansub gulli o'simlik turi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kamyob, endemik tur sifatida kiritilgan. Toshkent viloyati hududidagi tog' tizmalarida tarqalgan.



Kaufman lolasi (lotincha: Tulipa kaufmanniana) — Loladoshlar oilasiga



mansub lola (Tulipa) turkumiga kiruvchi bir pallali o‘simlik turi.

Zarafshon archasi – Markaziy Osiyoning tog‘li hududlarida, asosan, O‘zbekistonning Zarafshon tizmasida o‘sadigan noyob daraxt turi. U Archadoshlar oliasga mansub daraxt.

Xususiyatlari: Tashqi ko‘rinishi: Changal yoki alohida o‘suvchi, balandligi 3-10 metr atrofidagi doimiy yashil daraxt. Barglari: Ignasimon yoki mayda tangachasimon, rangi to‘q-yashil. Mevalari: Mayda, dumaloq, qora yoki ko‘kimtir rangdagi sharsimon mevalari bor. Tarqalishi va ekotizimdagi o‘rni: Zarafshon archasi O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmanistonning tog‘li hududlarida uchraydi. U qurg‘oqchil va tog‘ jinslari orasida o‘shishga moslashgan. Ushbu daraxt: Tog‘ ekologiyasida muhim ahamiyatga ega, eroziyaga qarshi kurashda yordam beradi. Havo sifatini yaxshilaydi, kislorod ajratadi. Mahalliy hayvonlar uchun boshpana va oziq manbai hisoblanadi. Zarafshon archasining ahamiyati: Dorivor xususiyatlari: Archaning efir yog‘lari antiseptik va tinchlantiruvchi ta’sirga ega. Yog‘ochi: Pishiq va chidamli bo‘lib, xalq amaliyotida turli asboblarni tayyorlashda ishlatilgan. Hozirgi archalarni odamzod, xo‘jalik mollari sifatida ishlatmoqda.



Manzarali o'simlik: Bog' va xiyobonlarga ekish uchun mos. Muhofaza holati: Zarafshon archasi sekin o'sadigan daraxt bo'lgani uchun uni kesish va o'tin sifatida ishlatish tabiatga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababdan, u ba'zi hududlarda himoya ostiga olingan.

Yer yuzida odamzod ko'payib borishi natijasida, tabiatga katta zarbalar bermoqda. Ularni sanab o'tamiz:

--- zavod va fabrikalardagi tutunlar va har yili yangi zavodlarning ortib borishi
--- moshinalar, ulardagi zaharli tutunlar
--- chorvachilikning ko'payib borishi. Odamzod ko'payib borishi natijasida go'shtga, sutga va turli xil maxsulotlarga ehtiyoji ortib bormoqda. Bu esa tabiatga, turli xil o'simliklar kamayib ketishiga sabab bo'ladi.

--- daraxtlarning kamayishi, daraxtlar har xil gazlar yutib, kislorod chiqarishi sir emas.

--- Daraxtlarning kamayishiga tabiiy iqlim ham sabab bo'lmoqda. Azon qatlami ekologiya buzilishi oqibatida yemiriladi. Quyoshdan kelayotgan nur ortib borishi natijasida o'rmonlar yonib ketmoqda. Va shu kabi omillar tabiatga juda katta ta'sir ko'rsatib, o'zlari bilmagan holda, tabiatni o'zgartirishmoqda.

O'simliklarni saqlab qolish va ko'paytirish bo'yicha O'zbekistonda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Quyidagi chora-tadbirlar eng samarali hisoblanadi:

- Qorovulxona va qo'riqxonalar tashkil etish
- Sun'iy ko'paytirish
- Biotexnologik yondashuvlar
- Aholi o'rtasida ekologik ongni oshirish
- Qonunchilik asosida himoya qilish

O'zbek olimlari O'simliklar genetik resurslari instituti, Botanika instituti va boshqa ilmiy muassasalarda yo'qolib borayotgan turlar ustida tadqiqotlar olib bormoqda. Bundan tashqari, FAO, IUCN kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston hududida uchraydigan noyob va yo'qolib borayotgan o'simliklar – milliy boyligimizdir. Ularni asrash, ko'paytirish va avlodlarimizga yetkazish



bizning burchimizdir. Har bir inson tabiatga mehr bilan yondashsa, uni asrashda faol ishtirok etsa, kelajakda bu go'zal o'simliklarni ham biz, ham kelajak avlodlar ko'rishi mumkin bo'ladi. Tabiatni asrash – bu faqat hukumat yoki olimlarning ishi emas, bu butun jamiyat zimmasidagi mas'uliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" (2023). – Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Tojiboyev, T.J., Beshko, N.Yu. (2020). "O'zbekiston florasini va uning himoyasi". Toshkent: O'zbekiston.
3. Nazarov, M., Pratov, U. (2018). "O'zbekistonning qimmatbaho va noyob o'simliklari". Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. O'zbekiston Ekologiya vazirligi hisobotlari (2022). – Toshkent.